https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Abduraimova Sohiba Karimkul qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-4695-764X
e-mail: abduraimova.sohiba1@gmail.com
Tel: +998507150710

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA KREATIV PEDAGOG SHAXSINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion ta'lim muhiti sharoitida kreativ pedagog shaxsini shakllantirishning nazariy, metodik va amaliy asoslari tahlil etiladi. XXI asrda raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt va globallashuv ta'lim jarayoniga Yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab qilayotgani ta'kidlanadi. Muallif ilg'or xalqaro tajribalar – Finlyandiya, Yaponiya, Singapur amaliyoti hamda 4K modeli (kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya)ning o'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qiladi. Maqolada taklif etilgan "4K+2I" konstruktiv-innovatsion mexanizmi o'qituvchining ijodiy fikrlashi, pedagogik improvizatsiya va intuitsiya orqali noaniq vaziyatlarda moslashuvchan qaror qabul qilish salohiyatini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu model bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlikni rivojlantirishning nazariy-metodik tizimini yaratadi, ularni refleksiv, sezgir va kasbiy jihatdan moslashuvchan pedagog sifatida shakllantiradi. Tadqiqot natijalari hamkorlik pedagogikasi, muammoli vaziyatlarda fikrlash va ijodiy yechim ishlab chiqishning ahamiyatini asoslab beradi. Xulosa o'rnida, "4K+2I" mexanizmi ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, tashabbuskorligini, ijtimoiy kompetensiyalarini va intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim muhiti, kreativ pedagog, 4K modeli, improvizatsiya, intuitsiya, hamkorlik pedagogikasi, konstruktivistik yondashuv, kasbiy kreativlik.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируются теоретические, методические и практические механизмы формирования креативной личности педагога в условиях инновационной образовательной среды. Автор подчёркивает, что стремительное развитие цифровой трансформации, искусственного интеллекта и глобализационных процессов требует от современного образования новых подходов и пересмотра методологии подготовки педагогических кадров. На основе международного опыта (Финляндия, Япония, Сингапур) рассматривается эффективность модели «4К» — креативность, критическое мышление, коммуникация и коллаборация. Предложенный автором конструктивно-инновационный механизм «4К+2I» дополняет базовые компетенции педагогической импровизацией и интуицией, что обеспечивает гибкость, оперативность и профессиональную чувствительность учителя в неопределённых ситуациях. Данный подход способствует развитию у будущих учителей начальных классов творческого потенциала, рефлексивности, адаптивности и способности принимать оптимальные решения в сложных педагогических условиях. Полученные результаты подтверждают значимость сотрудничества, проблемного обучения и креативного мышления для повышения качества образования. Сделан вывод, что механизм «4К+2I» усиливает когнитивное развитие учащихся, формирует внутреннюю мотивацию, способствует самостоятельному поиску знаний и развитию социально-коммуникативных навыков.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, креативный педагог, модель 4к, импровизация, интуиция, педагогическое сотрудничество, конструктивистский подход, профессиональная креативность.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the theoretical, methodological, and practical mechanisms for developing a creative teacher's personality within an innovative educational environment. The author emphasizes that the rapid development of digital transformation, artificial intelligence, and

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

globalization requires new approaches in education and a revision of teacher training methodologies. Drawing on international experience (Finland, Japan, Singapore), the paper examines the effectiveness of the '4C' model—creativity, critical thinking, communication, and collaboration. The proposed '4C+2I' constructive-innovative mechanism enriches core competencies with pedagogical improvisation and intuition, enabling teachers to act flexibly, responsively, and sensitively in uncertain pedagogical contexts. This approach strengthens the creative potential, reflective capacity, adaptability, and decision-making abilities of future primary school teachers. The findings highlight the importance of collaborative learning, problem-based tasks, and creative thinking in improving educational quality. It is concluded that the '4C+2I' mechanism enhances students' cognitive development, internal motivation, independent knowledge acquisition, and socio-communicative skills.

Keywords: innovative educational environment, creative teacher, 4c model, improvisation, intuition, collaborative pedagogy, constructivist approach, professional creativity.

KIRISH

XXI asr ta'limi inson kapitalini shakllantirishning strategik yo'nalishiga aylandi. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi ta'lim tizimiga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Jahon ta'lim tizimida ilg'or mamlakatlar, xususan, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, ta'lim sifatining asosiy omili bu — o'qituvchining kreativ fikrlashi, innovatsion g'oyalarni amaliyotga joriy eta olish salohiyatidir [1]. UNESCO (2024) ma'lumotlariga ko'ra, pedagog kreativligini rivojlantirish – global ta'lim siyosatining asosiy mezonlaridan biri bo'lib qolmoqda [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston–2030" strategiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

konsepsiyasida innovatsion yondashuvlarni ta’limga keng joriy etish, ijodiy salohiyatli pedagoglarni tayyorlash ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [3]. Mazkur maqola innovatsion ta’lim muhiti sharoitida kreativ pedagog shaxsini shakllantirishning nazariy va amaliy mexanizmlarini tahlil qilishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

“Innovatsion ta’lim muhiti” tushunchasi zamonaviy pedagogikada keng talqin etilmoqda. U faqat texnologik vositalar majmui emas, balki o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi ijodiy muloqot, mustaqil fikrlash, hamkorlik va refleksiyani qo‘llab-quvvatlaydigan tizimdir[4].

Jahon tajribasida Finlyandiya, Yaponiya va Singapurda o‘qituvchilarning “learning labs” orqali yangi metodlarni sinovdan o‘tkazish tajribasi keng joriy etilgan[5]. Innovatsion muhitning asosiy tarkiblari: pedagogik, texnologik, ijtimoiy-psixologik va madaniy komponentlardan iborat bo‘lib, ular o‘qituvchi kreativligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi[6].

Kreativ pedagog shaxsining shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, psixologik, pedagogik va ijtimoiy-madaniy omillar bilan belgilanadi.

Psixologik omillar — ichki motivatsiya va ijodiy ehtiyojlar, pedagogik omillar — metodik yangilikka ochiqlik, ijtimoiy omillar esa — kasbiy hamkorlik va ta’lim siyosatining qo‘llab-quvvatlashi bilan bog‘liqdir. Rivojlantirish mexanizmlariga metodik-motivatsion, texnologik, refleksiv va hamkorlik mexanizmlari kiradi. Bularning barchasi o‘qituvchini “bilim beruvchi” emas, balki “yangilik yaratuvchi” sifatida shakllantiradi [7].

Kreativ ta’lim haqida so‘z ketar ekan xalqaro ta’limda zamonaviy yondashuv bo‘lgan “4K” modelini yodga olmaslikning imkoni yo‘q. Zamonaviy ta’lim tizimida 4K modelidan foydalanishda talabalarning kreativ va tanqidiy fikrlashga, o‘z fikrini erkin bayon etishga, kasbiy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo‘lib, to‘rt asosiy kompetensiyni o‘z ichiga oladi:

Kollabaratsiya – hamkorlik bu jamoada ishlash ko‘nikmasi. Topshiriqni bajarayotganda talabalarning hamkorlikda ishlashlari, birovning g‘oya va fikrlarini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

qabul qilish, shuningdek, o‘z fikrini himoya qilishga asoslangan, o‘zaro hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishni shakllantirishdir.

Kommunikativlik – muloqot qilish qobiliyati, talabalar o‘z fikrlarini aniq va ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash va tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganishdir.

Kreativ fikrlash – ijodiy fikrlash insonni mashina va sun’iy intellektdan ajratib turadigan yangilik qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Talabalar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganishini, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishni va muammolarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Kritik fikrlash – tanqidiy fikrlash bu mustaqil fikrlaydigan shaxs sifatida boshqalarning fikrlarini o‘zlashtirmaslik, har doim o‘z fikriga ega bo‘lish va ularni dalillar bilan isbotlash, axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

NATIJALAR

Kollaborativlik, ya’ni hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakat olimlari, jumladan, J.Xopkins universiteti professori R.Slavin, Minnesotti universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, Koliforniya universiteti professori Sh.Sharon tomonidan tadqiq etilgan. O‘tgan asrning 70-yillarida J.Dyui hamkorlikda o‘qitishda natijalarni oldindan aniqlash, amaliy faoliyatni tashkil etish g‘oyasini ilgari surgach, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya mamlakatlari ta’lim muassasalarida bu g‘oyalar keng qo‘llanila boshlagan.

Hamkorlik pedagogikasi novator-pedagoglar (Sh.A.Amonashvili, S.N.Lisenko, V.F.Shatalov, E.N.Ilin va boshqalar) pedagogik jarayon ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) o‘rtasida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan o‘zaro munosabatlarni tashkil etishini ta’kidlab o‘tadilar. Hamkorlik pedagogikasi uchun konseptual ahamiyatga ega zaruz qoidalar buyuk pedagoglar

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

A.Avloniy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.A.Suxomlinskiy, J.J.Russo, K.Rodjers va boshqalarning pedagogik qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Pedagogik hamkorlik g‘oyalari bugungi kunda pedagogik texnologiyalar mazmuniga singdirilgan va “XXI asr ta’limi konsepsiyasi” asosini tashkil etadi. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi – o‘quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qish, o‘rganishdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Hamkorlik muhitini yaratish metodikasi A.S.Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan jamoani rivojlantirish nazariyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu nazariyaning mohiyati insonning shaxs sifatida shakllanishi va rivojlanishida jamoa (kollektiv) muhim o‘rin tutishiga asoslanadi. Har bir inson jamiyatda yashaydi, faoliyat yuritadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarga kirishadi[8].

Bizningcha, jamoaning ijodiy salohiyatidan foydalanish orqali har bir shaxsga o‘z qobiliyatlarini namoyon etish, o‘zini shaxs sifatida kashf qilish imkonini berish mumkin. Bu jarayonda o‘quvchi turli holatlarda o‘z fikrini dadil ifoda etadi, kerakli ma’lumotlarni izlaydi va ularni ongli ravishda tahlil qilib, baholashni o‘rganadi. Natijada, unda tashabbuskorlik, ijobiy fikrlash, o‘ziga ishonch kabi muhim shaxsiy fazilatlar rivojlanadi. Hamkorlikdagi ta’lim jarayonida o‘qituvchining sinfdagi guruh, jamoa yoki juftlik faoliyatini samarali tashkil eta olishi — o‘quvchilarning o‘zaro ta’sirchanlik darajasini oshiradi. Bu sharoitda o‘qituvchi endilikda faollashtiruvchi, yo‘naltiruvchi, ya’ni yordamchi rolini bajaradi, guruhlar o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydi va fikr almashish uchun qulay muhit yaratishga ko‘maklashadi.

Bunday hamkorlikda har bir o‘quvchi bevosita ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, bilim olish usullarini ongli ravishda tanlaydi, mustaqil fikrlaydi, erkin fikr bildiradi va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Takrorlash

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

va mustahkamlash bosqichlarida kichik guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilar bir-biriga do‘stona yordam ko‘rsatadi. Bilim darajasi pastroq bo‘lgan o‘quvchilar o‘zlarini e’tiborda sezadi, guruhlar o‘rtasida sog‘lom raqobat vujudga keladi va bu psixologik jihatdan qulay muhit yaratadi.

Bunday holatlarda o‘qituvchining vazifasi — jarayonni muvofiqlashtirish, yo‘l ko‘rsatish, maslahat berish va rag‘batlantirishdan iborat bo‘ladi. Hamkorlik muhiti ishtirokchisi suhbat davomida nafaqat o‘z fikrini bildiradi, balki boshqalarning fikrini ham inobatga oladi, o‘zini boshqaradi. Shu tarzda o‘quvchi biladigan har bir ma’lumot guruh muvaffaqiyatiga xizmat qilishi, yoki topshiriqlarni bajarmaslik esa guruhni ortga tortishi mumkinligini amalda tushunadi. Bu esa o‘quvchining mas’uliyat hissini oshiradi, aqliy munozara muhiti, xayrixohlik va faol hamkorlikka asoslangan sog‘lom muhit shakllanadi.

O‘qituvchi topshiriqlarni o‘quvchilarga taqsimlayotganda har bir o‘quvchining aynan qaysi yo‘nalishda – og‘zaki nutq, yozma nutq yoki imloda – qiynalayotganiga e’tibor qaratishi kerak. Ya’ni, har bir o‘quvchiga o‘zining zaifroq bo‘lgan sohasini yaxshilashga qaratilgan topshiriqlar berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda takrorlash va mustahkamlash darslarini hamkorlik muhitida tashkil etish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ularning shaxsiy kamolotiga yordam beradi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishida muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchini doimiy ijodiy izlanishda bo‘lishga undaydi.

Takrorlash va mustahkamlash darslarida 4K modelining “hamkorlikda ishlash” (collaboration) bo‘limi yuqori samaradorlikka ega. O‘quvchilarning hamkorlikda o‘rganishiga xizmat qiluvchi bir nechta metodlar mavjud. Masalan, R.Slavin tomonidan taklif etilgan guruhlarda o‘qitish usulida sinfdagi o‘quvchilar teng sonli ikki guruhga bo‘linadi va har ikki guruh bir xil topshiriq ustida ishlaydi. Guruh a’zolari vazifalarni birgalikda bajaradi, har bir o‘quvchi mavzuni to‘liq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

o‘zlashtirishga, kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashga harakat qiladi. R.Slavinga ko‘ra, o‘quvchilarga faqatgina topshiriqlarni birgalikda bajaring, deb aytishning o‘zi yetarli emas. O‘quvchilarning faol ishtiroki bosqichma-bosqich rivojlanadi va natijada ular mustaqil ravishda bilim olish jarayonini boshqaradigan darajaga yetadi. Bunday sharoitda o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat ham teng sheriklik asosiga quriladi.

Bahsli yoki muammoli vaziyatlar — bu inson faoliyati davomida yuzaga keladigan, fikrlashni talab qiluvchi murakkab holatlardir. Bunday vaziyatda odam qanday harakat qilish yoki hodisani qanday izohlashni bilmay qoladi. Aynan shunday holatlar o‘quvchilarning aqliy salohiyatini ishga soladi — ular vaziyatni anglab olish, yechim topish yo‘lida izlanishni boshlaydi, turli qiyinchiliklarga duch keladi. Aslida, inson aynan muammo bilan to‘qnash kelganidagina chuqur fikrlashga kirishadi. U o‘zidagi mavjud bilimlardan foydalanib, amaliy harakatlarga o‘tadi va o‘z saviyasiga mos xulosalar chiqarishni o‘rganadi.

O‘quvchilarning topshiriqlarni qanday bajarganini tushuntirib bera olishi muhim. Muammo yechimi davomida tushunmagan joylarini o‘z so‘zlari bilan ifodalay olishlari esa o‘qituvchi uchun juda kerakli ko‘rsatkichdir. Shu bois nemis pedagogi Disterveg bejizga “Noto‘g‘ri o‘qituvchi haqiqatni aytib qo‘yadi, yaxshi o‘qituvchi esa uni topishni o‘rgatadi”, deb aytmagan.

Bu nuqtada o‘qituvchining vazifasi — shunchaki mavzuni tushuntirib berish emas, balki o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qiladigan muammoli vaziyatni to‘g‘ri qo‘ya bilish, ularni fan bilan qiziqtira olish, hissiyotlariga ta’sir eta olish va masalani birgalikda hal qilishga jalb etishdir.

Agar bola erkin fikrlasa, uning fikriga hurmat bilan qaralsa, unda o‘ziga va boshqalarga nisbatan hurmat hissi shakllanadi. Bahsli darslar davomida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik bolaning faolligini oshiradi, uni bo‘ysunuvchanlikdan va ko‘r-ko‘rona itoatdan holi qiladi.

Dars esa umumiy maqsad sari harakat qilayotgan birgalikdagi faoliyatga aylanadi. Hamkorlikda o‘qitishning eng samarali metodlaridan biri bu —

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

“Birgalikda o‘qiymiz” metodi bo‘lib, u 1987-yilda Minnesot universiteti professorlari D. Jonson va R. Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu metodda sinf o‘quvchilari 3–5 kishilik kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh darsdagi topshiriqning ma’lum bir qismini bajaradi. Oxir-oqibatda barcha guruhlar o‘z vazifasini bajarganidan so‘ng dars materiali to‘liq o‘zlashtiriladi. Bu usul orqali bilimlar yaxlit, izchil va chuqur egallanadi[8].

MUHOKAMA VA XULOSALAR

Zamonaviy ta’lim jarayonida 4K modeli — kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollabaratsiya — o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq hozirgi ta’lim muhiti murakkab, o‘zgaruvchan va ko‘p holatlarda oldindan rejalashtirib bo‘lmaydigan vaziyatlar bilan to‘lib-toshgan. Shunday sharoitda faqat 4K komponentlari yetarli bo‘lmay, unga “improvizatsiya” va “intuitsiya” kabi chuqurroq psixologik va reflektiv qobiliyatlarni ham qo‘shish zaruratga aylanmoqda.

Pedagogik tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qituvchi faqat metodik qoidalarga tayanib emas, balki real vaziyatga mos ravishda sezgir, tezkor, ijodiy va moslashuvchan bo‘lishi kerak. Aynan shunday sharoitda “4K+2I” modeli taklif etiladi — u “4 ta asosiy kompetensiya”ni (kreativlik, tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya va kollabaratsiya) “improvizatsiya” va “intuitsiya” orqali to‘ldirib, o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi.


Improvizatsiya — bu o‘qituvchining o‘quv vaziyatida yuzaga kelgan kutilmagan o‘zgarishlarga mos ijodiy yondasha olishidir. Ta’limda improvizatsiya pedagogga nafaqat dars mazmunini yetkazish, balki u orqali o‘quvchini ilhomlantirish, darsga jon baxsh etish imkonini beradi. “Improvizatsiya ijodning markazida turadi, chunki u harakat va fikr o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiradi[9] “.

Pedagogik improvizatsiya — bu o‘qituvchining tayyor stsenariydan chetlashib, muayyan vaziyatga mos ravishda darsni jonlantirish usulidir. U o‘quvchilarning ishtirokini oshiradi, darsga qiziqishni kuchaytiradi, individual yondashuvni ta’minlaydi va ijodiy erkinlikni rag‘batlantiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Intuitsiya – bu murakkab, ko‘p omilli vaziyatlarda o‘qituvchining tez, ammo ishonchli qaror qabul qilish qobiliyatidir. Ko‘pincha bu qarorlar chuqur tahlilga emas, balki ilgari to‘plangan tajriba, sezgi va emotsional anglashga tayanadi. “Inson tez va sekin fikrlaydi. Intuitsiya – bu tez fikrlashning shaklidir[10] “.

Ta’limiy jarayonda intuitsiyali o‘qituvchi: o‘quvchilarning psixologik holatini “his eta oladi”, dars dinamikasini his qilgan holda uslubini moslashtiradi, noaniq holatlarda ham ishonchli qarorlar qabul qiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchining kasbiy sezgirligini, refleksiv tafakkurini va pedagogik holatlarni boshqarish layoqatini oshiradi.



1-rasm. 4K+2I modeli asosida kreativlikni rivojlantirishning konstruktiv-innovatsion mexanizmi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

4K modeli – bilim, kommunikatsiya, tahlil va jamoaviy faoliyatni ta’minlaydi. 2I komponenti esa – ichki fikrlash (intuitsiya) va holatga ijodiy yondashuv (improvizatsiya) orqali o‘qituvchining kasbiy erkinligini mustahkamlaydi. Shu bois “4K+2I” konstruktiv-innovatsion mexanizmi o‘qituvchiga: noaniq va murakkab pedagogik vaziyatlarda harakat qilish; qat’iy rejalashtirilgan yondashuvlar o‘rniga elastiklik va moslashuvchanlikni qo‘llash; shaxsiy sezgi va tajribaga asoslangan qarorlar chiqarish; ijodiy fikr va sezgi asosida kreativ muhit yaratish imkonini beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik qobiliyatini rivojlantirish jarayonida “4K+2I” konstruktiv-innovatsion mexanizmi o‘qituvchining kasbiy sezgirligi, ijodiy moslashuvchanligi hamda murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning nazariy-metodik mexanizmi bo‘la oladi (1-rasm).

Bunda nazariy asos sifatida falsafiy, psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar bo‘lib, innovatsion, konstruvistik yondashuv va vorisiylik tamoyillari orqali 5 bosqichda talabalarda kreativlik, kollabaratsiya, kritik fikrlash, kommunikatsiya, improvizatsiya va intuitsiyani rivojlantirish talabalarning kreativlik qobiliyati va kasbiy ko‘nikmalarini oshiradi, turli vaziyatlarga eng to‘g‘ri va optimal yechim topishni o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim jarayonida “4K+2I” konstruktiv-innovatsion mexanizmidan samarali foydalanish o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini chuqurlashtirish, bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm o‘quvchilarga nafaqat mavzuni chuqurroq anglash, balki bilimni mustaqil izlash, uni baholash va qo‘llash imkonini beradi. Ularning dunyoqarashi kengayib, shaxsiy intellektual salohiyati yuzaga chiqadi. Axborot almashinuvi, muloqot madaniyati va jamoaviy fikrlashga asoslangan hamkorlik muhiti esa har bir bolaning o‘z o‘rnini anglashiga, o‘z fikrini dadil bayon eta olishiga va boshqalar bilan hurmat asosida ishlay

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

olishiga zamin yaratadi.

Shunday ekan, “4K+2I” konstruktiv-innovatsion mexanizmidan maqsadli va tizimli foydalanish zamonaviy ta’limning eng dolzarb tamoyillaridan biri bo‘lib, kelajak avlodni har tomonlama yetuk, faol, bilimdon va samarali fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sahlberg, P. (2022). Finnish Lessons 3.0. Teachers College Press, New York.
2. UNESCO (2024). The Futures of Education 2030. Paris.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-237-son Farmoni, “O‘zbekiston–2030 strategiyasi to‘g‘risida”. 2023-yil 11-sentabr.
4. Fullan, M. (2020). The New Meaning of Educational Change. Routledge.
5. MEXT Japan (2023). Creative Lesson Design in Japanese Schools. Tokyo.
6. Sattorov, A.Q. (2023). Ta’lim tizimida innovatsion muhitni yaratishning nazariy asoslari. TDPU nashriyoti
7. Hargreaves, A. & O’Connor, M. (2021). Collaborative Professionalism. Sage Publications.
8. Xodiyeva G.H. Boshlang‘ich ta’limda 4K modelidan foydalanishning pedagogik xususiyatlari. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik strategiyalari: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 20.02.2024. 581-584. https://doi.org/10.5281/zenodo.10682038
9. Sawyer, R.K. (2004). Creative teaching: Collaborative discussion as disciplined improvisation. Educational Researcher, 33, 12-20. http://dx.doi.org/10.3102/0013189X033002012
10. Kahneman, D. (2011). *Thinking, Fast and Slow.* Farrar, Straus and Giroux. ISBN: 978-0374533557.
11. Abduraimova, S. (2025). TALABALARDA KREATIVLIKNING NAMOYON BO‘LISHI, MAZMUN VA MOHIYATI. *Наука и инновация*, *3*(1), 133–136.
12. Abduraimova, S. (2024). THE ROLE AND IMPORTANCE OF MATHEMATICAL CREATIVITY IN EDUCATION. Modern Science and Research, 3(11), 575-579.